

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI

RUSTAMOV SHAVKAT YUSUBOVICH

**DIGIDROKVERSETIN VA F-18 ALKALOIDI KONYUGATINING
KARDIOPROTEKTIV XUSUSIYATINI BAHOLASH**

03.00.02 – Biofizika va radiobiologiya

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Rustamov Shavkat Yusubovich

Digidrokversetin va F-18 alkaloidi konyugatining kardioprotektiv xususiyatini baholash..... 5

Рустамов Шавкат Юсубович

Оценка кардиопротекторного действие комплекса дигидрокверцетина и алкалоида F-18..... 22

Rustamov Shavkat Yusubovich

Evaluation of the cardioprotective effect of the complex of dihydroquercetin and alkaloid F-18..... 42

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI

RUSTAMOV SHAVKAT YUSUBOVICH

**DIGIDROKVERSETIN VA F-18 ALKALOIDI KONYUGATINING
KARDIOPROTEKTIV XUSUSIYATINI BAHOLASH**

03.00.02 – Biofizika va radiobiologiya

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/B296 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ibb-nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot – ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmanov Pulat Bekmuratovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasirov Kobil Erkinovich
biologiya fanlari doktori, professor

Xadjimetov Abdugafur Axatovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.B.01.13 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "____" soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 174-uy. Tel: (99871) 246-68-96).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 174-uy. Tel.: (99871) 246-68-96, e-mail: ibb-nuu@mail.ru; mamurjon2281@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "____" _____ kuni tarqatildi
(2024 yil "____" _____dagi № ____ raqamli reyestr bayonnomasi).



Saatov

Saatov Tal'at Saatovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
b.f.d., akademik

Pozilov

Pozilov Ma'murjon Komiljonovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d.

Axmedjanov

Axmedjanov Iskandar Gulyamovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda kardioproteksiya yurak-qon tomir kasalliklarini (YuQTK) oldini olish va davolashning eng dolzarb va ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularning terapiyadagi sezilarli yutuqlariga qaramay, rivojlangan mamlakatlar aholisi salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Jaxon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ekspertlarining fikriga ko‘ra, ushbu holatning sababi YuQTK larida qo‘llaniladigan dori terapiyasining samaradorligi pastligi, ishlatilayotgan dorilarning imkoniyatlari cheklanganligi, aksariyatining nojo‘ya ta‘siri borligi sababli zarur talablarga javob bermaydi. Shunga ko‘ra, ushbu kasalliklarning oldini olish va davolashning zamonaviy konsepsiyasida yuqori samarali kardioprotektorlardan foydalanishga asoslangan kardiomiotsitlar shikastlanishining rivojlanishini oldini olish bo‘yicha kombinatsiyalangan kardioprotektor agentlar ta‘sirining yangi chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yurakning ishemik kasalliklarini davolash va oldini olish maqsadida butun dunyo yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida farmakologik preparatlar ishlab chiqarish yo‘nalishida bir qancha biologik faol birikmalar jumladan, alkaloidlar va flavonoidlar istiqbolli manbalar ekanligi ta‘kidlangan. Shu munosabat bilan, samarali kardioprotektiv ta‘sirga ega bo‘lgan yangi avlod dori vositalarini yaratish bo‘yicha butun dunyo farmakolog va kardiologlarining mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarini davom ettirishi yurakning ishemik kasalliklarini davolash va oldini olishni takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yurak kasalliklarini davolash va oldini olish borasida islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lib, buning natijasida alkaloidlar va flavonoidlar hamda ularni gibridlarining kimyosi va farmakologiyasi yo‘nalishida keng ko‘lamda ilmiy va amaliy tadqiqotlarga katta e‘tibor qaratildi. Bu borada, jumladan, farmakologiya sohasida ilmiy-innovatsion ishlanmalarni amaliyotga samarali tadbiriq etish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 4-yo‘nalishida «farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarini arzon, sifatli dori vositalari bilan ta‘minlanishini yaxshilash» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda hozirgi vaqtda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga, jumladan, biologik faol moddalar asosida samarali farmakologik preparatlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni¹, 2018 yil 14 fevraldagi PQ-3532-son «Farmasevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Qarori va 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-son «Tibbiyot va farmasevtika ta‘limi va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017-yildagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori va 2022 yil 26 yanvardagi PQ-103-sonli «Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori 2-ilovasi 14-bandi ijrosini ta'minlash yuzasidan hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ushbu yo'nalishda dunyoning ko'plab tadqiqot markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. L.R. Santos va boshqalar (2023) tomonidan olib borilgan tajribalarda yurak muskul qisqarish faolligida musbat inotropizmning mexanizmlarini tavsiflagan va bu esa asosan β -adrenoretseptor (β -AR) signal yo'lining faollashishi orqali protein kinaza A ga (PKA) bog'liq L-tip Ca^{2+} kanallari (LTCC) va rianodin retseptor (RyR) larning fosforlanishi natijasida musbat inotropizm yuzaga kelishini aniqlagan (Sergip federal universiteti Fiziologiya kafedrasi L.R.Santos et al., 2023). Bundan tashqari, kardiomiotsit sarkoplazmatik retikulum (SR) ishemiyasi/reperfuziyasi (I/R) sabab bo'lgan apoptozda hal qiluvchi rol o'ynaganligi sababli, izoxinolin alkaloidlar kardioprotektor ta'siri I/R vaqtida SR modulyatsiya qilish natijasida yuzaga kelishi Yongjun Wang va boshqa bir guruh Xitoy olimlari tomonidan isbotlangan (Yongjun Wang et al., 2015).

Ushbu yo'nalishda Rossiya Fanlar Akademiyasi Kardiologiya ilmiy tadqiqot institutining Tomsk milliy ilmiy tibbiyot markazida yurakning turli kasalliklarida jumladan, infarkdan keyingi kardiosklerozda miokardning inotropik faolligi o'zgarishining tafsilotlari tadqiqotlarda yoritib berilgan (Dina S Kondrat'eva et al., 2023). Shuningdek, turli xil gipoksiya sharoitida biologik faol moddalarning kardioproteksiya qilish mexanizmlarini tadqiq qilishga alohida e'tibor berilgan (Sataeva, 2020).

Respublikamizda ushbu sohada O'zMU huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti Hujayra biofizikasi laboratoriyasi uzoq vaqtdan buyon miokard qisqarish faolligiga biologik faol moddalarning ta'sir mexanizmlarini aniqlash bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan birga, ayrim izoxinolin alkaloidlarning inotrop va antiaritmik ta'sir mexanizmlari aniqlangan va tavsiflangan (I.Z.Jumaev, 2012-2021). Biroq, izoxinolin alkaloidlari va digidrokversetin flavonoidi konyugatlarining inotrop va kardioprotektiv ta'sir mexanizmlari o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, ushbu konyugatlarining musbat inotrop ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini yanada tavsiflash ular orasida yangi kardioprotektiv vositalarni yaratish uchun istiqbolli bo'lganlarini aniqlash imkonini beradi. Albatta, musbat inotrop ta'sirga ega izoxinolin alkaloidlari va DGK asosida yangi kardioprotektiv vositalarni yaratish kardioproteksiyaga yangi adekvat yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FA-F-6-004: «Yurak-qon tomir kasalliklarini davolashning adekvat yo'llarini ishlab chiqish uchun yurak va silliq muskul hujayralari istiqbolli nishonlarini modulyatsiya mexanizmlarining kompleks tavsifi» (2017-2020) va F-OT-2021-154: «Yurak va silliq muskul hujayralari Ca^{2+} -gomeostazini o'simlik biologik faol birikmalari bilan modulyatsiya qilish mexanizmlari» (2021-2025) mavzusidagi ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi digidrokversetin flavonoidi va F-18 izoxinolin alkaloidi hamda ular asosida olingan DKV-11 konyugatining kardioprotektiv xususiyatini baholashdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

kalamush yuragi papillyar muskul qisqarish faolligiga F-18 izoxinolin alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va ular asosida olingan DKV-11 konyugatining dozaga bog'liq ta'sirini baholash;

F-18 alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va DKV-11 konyugatining musbat inotrop ta'sirida Na^{+} -, Ca^{2+}_L -kanallari, K^{+}_{ATF} -kanallari, Na^{+}/Ca^{2+} -almashuvchi, Na^{+}/K^{+} -ATFaza ishtirokini tahlil qilish;

F-18 alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va DKV-11 konyugatining β -adrenoretseptorlar va SR Ca^{2+} -transport tizimlari (RyR2, SR Ca^{2+} - ATFaza (SERCA2a)) faolligiga ta'sirini aniqlash;

F-18 alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va DKV-11 konyugatining gipoksiya va oksidlovchi stress sharoitida kardioprotektor ta'sirini o'rganish;

F-18 alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va DKV-11 konyugatining kardioprotektor xususiyati mexanizmlarini tavsiflash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida kalamush yuragi papillyar muskuli, Na^{+} -, Ca^{2+} -, K^{+}_{ATF} -kanallari, Na^{+}/K^{+} -ATFaza va Na^{+}/Ca^{2+} -almashuvchi, RyR2 va SERCA2a olingan.

Tadqiqotning predmeti F-18 izoxinolin alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi hamda ular asosida olingan DKV-11 konyugati hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kalamush yuragi papillyar muskulining qisqarish faolligini qayd qilish va tahlil qilishning zamonaviy fiziologik va biofizik usullaridan foydalanildi. Papillyar muskul qisqarish faolligi izometrik sharoitda boholandi. Har bir eksperiment kamida 4-5 marta takrorlangan holda amalga oshirildi. Olingan natijalarni statistik tahlili uchun OriginLab. Pro v. 9.0 SR1 (EULA, AQSh) dasturidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

F-18 alkaloidi, DGK flavonoidi va ularning konyugati DKV-11 ning musbat inotrop faollikka ega ekanligi aniqlangan;

F-18 alkaloidi, DGK flavonoidi va ularning kon'yugati DKV-11 ning musbat inotrop ta'siri Na^{+}/K^{+} -ATFaza tizimlari funksiyasini modulyatsiyasi hisobiga Na^{+}/Ca^{2+} -almashuvchiga teskari reversion rejimga olib kelishi orqali

hamda β_2 -AR-AS-sAMP-PKA kaskad reaksiyasi orqali Ca^{2+}_L -kanallarini faollashtirishi bilan amalga oshgan.

DGK, F-18, DKV-11 larning musbat inotrop ta'siri SERCA2a ni faollashtirilishi orqali amalga oshishi aniqlangan.

In vitro gipoksiya va oksidlovchi stress sharoitida DKV-11 konyugati DGK va F-18 larga ko'ra yanada aniqroq kardioprotektor ta'sirga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

biologik faol moddalarning musbat inotrop va kardioprotektiv ta'sir mexanizmlari o'rganildi, plazmalemma va SR ning Ca^{2+} transport tizimlari modulyatsiyasi asosida yotuvchi kompleks mexanizmlar aniqlandi.

Olingan natijalar alkaloidlar va flavonoidlarning inotrop va kardioprotektiv ta'sirining mumkin bo'lgan mexanizmlari haqidagi mavjud nazariy bilimlar doirasini kengaytiradi. Kardiomiositlardagi Ca^{2+}_L kanali, Na^+/Ca^{2+} almashuvchisi, SR Ca^{2+} transport tizimlari faolligini korreksiya qilish hisobiga $[Ca^{2+}]_i$ dinamikasining modulyatsiyasiga asoslangan DKV-11 konyugatining inotrop va kardioprotektiv ta'siri haqida olingan ma'lumotlar kardioprotektiv vositalarning yangi avlodini ishlab chiqish uchun nazariy asos sifatida foydalanish mumkin. Ushbu ishni bajarish davomida olingan ma'lumotlar yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolash uchun yangi samarali preparatlarning dizaynida ratsional yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy biofizik va fiziologik tadqiqot usullari va asboblaridan foydalanish, shuningdek, maxsus dasturlar yordamida olingan natijalarni matematik va statistik qayta ishlash bilan belgilanadi.

Olingan ma'lumotlar OriginPro v. 9.0 SR1 (EULA, Northampton, MA 01060-4401, AQSh) dasturida statistik tahlil yordamida qayta ishlandi, bu erda o'rtacha ishonchlilik qiymati intervali t-Student me'zonlari yordamida hisoblangan. Natijalarning ishonchliligi ularning ilmiy nashrlarda nashr etilishi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati F-18 izoxinolin alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va ularning konyugati DKV-11 ning norma, gipoksiya va oksidlanish stress sharoitida inotrop va kardioprotektiv ta'sir mexanizmini aniqlashdan kelib chiqib, biologik faol birikmalarning farmakologik xususiyatlari haqidagi tushunchalarni sezilarli darajada kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati F-18 izoxinolin alkaloidi va digidrokversetin flavonoid asosidagi DKV-11 konyugatining kompleksini hosil qilishi natijasida musbat inotrop va kardioprotektiv ta'sirlarning sezilarli darajada oshishi aniqlandi. Ushbu natijalar muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki ular yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish uchun yangi avlod dori vositalarini yaratishda ratsional struktura dizayni eng oqilona usullarini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Digidrokversetin va F-18 alkaloidi konyugatining kardioprotektiv xususiyatini baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan yurak ishemik kasalliklarining oldini olish va davolash uchun kardioprotektiv vositaga, ixtiroga patent olindi (IAP № 06753. 2022 y.). Natijada, 2-(3,4-dihidroksifenil)-6-[1-(2'-bromo-4',5'-dimetoksifenil)-6,7-dimetoksi-3,4-dihidroizokinolin-2(1N) -il]metil-3,5,7-trihidroksi-xroman-4-on (DKV-11) gipoksiya va oksidlovchi stress tufayli yurak muskul qisqarish faolligidagi buzilishlarni samarali tuzatish imkonini bergan;

F-18 izoxinolin alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va ularning kompleksi (DKV-11) ta'sir mexanizmi haqidagi ma'lumotlar yuqori impakt faktorli xorijiy ilmiy jurnallarda biologik ta'sirlarni tavsiflash uchun ishlatilgan (Molecules) 2023 Jan; 28(2), Scopus CiteScore-6,7, Eksperimental'naya i Klinicheskaya Farmakologiya, 2023, 86(4), Scopus CiteScore-0,4 va Chemistry of Natural Compounds, 2023, 59(4), Scopus CiteScore-1,4). Natijada izoxinolin alkaloidlari va flavonoidlarning farmakologik xususiyatlari haqida mavjud ma'lumotlarni sezilarli darajada kengaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. 1 ta patent olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, yakuniy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika ilm va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqot ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarni ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yurak muskul hujayralarining struktura-funksional faolligining molekulyar mexanizmlari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy adabiyot ma'lumotlariga asoslanib, miyokardning tuzilishi va funksiyalari asoslari, kardiomiotsitlarning ion tashish tizimlari (Na^+ , K^+ va Ca^{2+} -ion kanallari, $\text{Na}^+/\text{Ca}^{2+}$ -almashinuv, Na^+/K^+ -ATFaza), SR ning Ca^{2+} transport tizimlari, hamda adreneroretseptorlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kardiomiotsitlarning qisqarish va bo'shish jarayonida ushbu ion kanallari va retseptorlari faoliyatining roli va molekulyar mexanizmlari ham tavsiflangan. Shuningdek, yurak kasalliklari va ularning turlari, yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladigan biologik faol moddalarning (yurak glikozidlari va boshqalar) ta'sir qilish mexanizmlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.


Dissertatsiyaning "**Digidrokversetin, F-18 alkaloidi va ularning konyugati DKV-11 ning inotrop va kardioprotektiv faolligini baholash metodlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida ushbu tadqiqotda foydalanilgan asbob-uskunalar va kalamush yuragi papillyar muskul qisqarish faolligini qayd qilish usullari batafsil tavsiflangan. Turli xil eksperimental sharoitlarda papillyar muskul qisqarish faolligiga F-18 izoxinolin alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va DKV-11 konyugatining ta'sirini baholash bo'yicha eksperiment protokollari keltirilgan. Shuningdek ion kanallar, retseptorlar va sarkolemma tashuvchilari (Na^+ , K^+ va Ca^{2+} ion kanallari, $\text{Na}^+/\text{K}^+-\text{ATFaza}$) va SR Ca^{2+} -transport tizimlari funksional faolligiga F-18 izoxinolin alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va DKV-11 konyugatining ta'sirini baholash metodlari taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning "**F-18 izoxinolin alkaloidi, digidrokversetin flavonoidi va ular konyugati DKV-11 ning inotrop ta'siri**" deb nomlangan uchinchi bobida F-18 alkaloidi, DGK flavonoidi va DKV-11 konyugatining kalamush yuragi papillyar muskul qisqarish faolligiga inotrop ta'sirida Na^+ , Ca^{2+}_L , ATF ga bog'liq K^+ -kanallari (K_{ATF}), $\text{Na}^+/\text{K}^+-\text{ATFaza}$, $\text{Na}^+/\text{Ca}^{2+}$ -almashuvchi va β -adrenoretseptorlarning o'rnini baholash uchun olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

So'nggi yillarda o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bir qator tabiiy va sintetik moddalar ishemiya-reperfuzya sharoitida aniq kardioprotektiv xususiyatlarga ega (Jintao W., 2012 yil). Xususan, o'simliklardan ajratib olingan ba'zi flavonoidlar va alkaloidlar kuchli kardioprotektiv ta'sirga ega bo'lib, bugungi kunda yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda istiqbolli vosita sifatida qaralayotgani isbotlangan (Barnaulov O.D., 2010 yil). Bundan tashqari, ushbu biologik faol moddalar asosida olingan konyugatlarining kardioprotektiv ta'siri katta qiziqish uyg'otadi. Shuni hisobga olib, tajribalarimizda DGK flavonoidi, F-18 alkaloidi va ularning konyugati DKV-11 ning kalamushlar yuragi papillyar muskul qisqarish faolligiga ta'siri o'rganilganda ushbu birikmalar aniq musbat inotrop ta'sirga ega ekanligi aniqlandi. Bunda DGK (5-60 mkM), F-18 (5-45 mkM) va DKV-11 (5-35 mkM) papillyar muskul qisqarish kuchini nazorat bilan solishtirganda nazoratga nisbatan mos ravishda $51,4 \pm 3,4\%$, $65,6 \pm 4,4\%$ va $77,4 \pm 4,2\%$ ga oshirdi. O'rganilayotgan birikmalarning EC_{50} qiymati (mushak qisqarishining yarim maksimal o'sishiga olib keladigan konsentratsiya) mos ravishda 21,2 mkM, 14,6 mkM va 9,7 mkM ni tashkil etdi (1-rasm, A, B).

Na^+ ning hujayra ichidagi konsentratsiyasi ($[\text{Na}^+]_i$) miyokardning elektr va qisqarish faolligini modulyatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Miyokardning elektr stimulyatsiyasi bilan potensialga bog'liq Na^+ -kanallari ochilib, harakat potensialini (HP) amalga oshirish jarayoni boshlanadi. HP ning plato bosqichida tashqi muhitdan Ca^{2+} ionlari L tipidagi Ca^{2+} kanallari orqali miotsitlarga kiradi.


Ca²⁺ ionlarining kirishi sarkoplazmatik retikulumdan (SR) sitozolga Ca²⁺ ionlarining chiqishini stimullaydi, bu esa kardiomiotsitlarning qisqarish jarayonini qo'zg'atadi. Yurak muskullarining qisqarish jarayonida Na⁺ kanallarining roli muhimligini hisobga olib, keyingi tajribalar seriyasida DGK flavonoidi, F-18 alkaloidi va ularning konyugati DKV-11 ning kardiomiotsitlar membranalarining Na⁺ kanallariga ta'siri o'rganildi.



1-rasm. Digidrokversetin flavonoidi, F-18 izoxinolin alkaloidi va ularning konyugati DKV-11 ning dozaga bog'liq inotrop ta'siri. A. (original yozuv). B. Ordinata o'qida – maksimalga nisbatan foiz hisobida ifodalangan qisqarish kuchi, absissa o'qida – BFMlarning konsentratsiyasi (mkM) ko'rsatilgan. Stimulyatsiya chastotasi 1 Gs ((t=+36±0,5oC); n=5).

DGK flavonoidi, F-18 alkaloidi va DKV-11 konyugatining musbat inotrop ta'sirini ta'minlashda Na⁺- kanallarining rolini baholash uchun ushbu kanallarning spesifik blokatori - lidokain ishtirokida kalamush yuragi papillyar muskul qisqarish faolligiga ularning ta'sirini tekshirdik (Jielin Pu et al., 1998 yil).


Ushbu tajribalarda 15,1 mkM lidokain (yarim maksimal ingibirlovchi konsentratsiyasi) mavjudligida DGK (5-60 mkM), F-18 (5-45 mkM) va DKV-11 (5-35 mkM) larning musbat inotrop ta'siri mos ravishda 63,8±4,7%, 58,8±4,1% va 54,6±4,6% ga kamaydi (2-rasm).



2-rasm. DGK flavonoidi, F-18 alkaloidi va DKV-11 konyugatining muhitda lidokain mavjud sharoitda kalamush papillyar muskul qisqarish kuchiga ta'siri. Ordinata o'qida – muskul qisqarish kuchi maksimalga nisbatan foiz (%) hisobida ifodalangan. Stimulyatsiya chastotasi 1 Gs (t=+36±0,5oC). Barcha holatlarda * - p<0,05; ** - p<0,01; n=5.

Ushbu tajribalarda olingan natijalar DGK flavonoidi, F-18 alkaloidi va DKV-11 konyugatining musbat inotrop ta'sirini ta'minlashda kardiomiotsitlarning Na⁺ kanallarining ishtiroki mavjud ekanligini ko'rsatadi. Bunda Na⁺ kanallarining faollashuvi kardiomiotsitlarda Na⁺ ionlari miqdorining ko'payishiga olib keladi, bu esa Na⁺/Ca²⁺ almashuvchi funksiyasining teskari reversion o'zgarishi natijasida sitozolga Ca²⁺ ionlari kirib [Ca²⁺]_i va SR dagi Ca²⁺ zahiralari ortishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, Ca²⁺ kanallari yurakning elektr va qisqarish funksiyalarini ta'minlash va tartibga solishda yetakchi rol o'ynaydi. Ca²⁺_L-kanallari harakat potentsialining davomiyligini tartibga soladi va Ca²⁺ ionlarining kardiomiotsitlarga kirishiga imkon beradi, bu erda ular signal uzatish va yurak qisqarishi bilan bog'liq jarayonlarning boshqarilishida muhim rol o'ynaydi. Buni hisobga olgan holda keyingi tajribalarda Ca²⁺_L-kanallarining spetsifik blokatori nifedipin yordamida DGK, F-18 va DKV-11 ning musbat inotrop ta'sirida Ca²⁺_L kanallarining roli o'rganildi. Dastlabki tajribalarda nifedipinning IC₅₀ qiymati (yarim maksimal ingibirlovchi konsentratsiyasi) aniqlandi va usbu qiymat IC₅₀ = 0,01 mkM ni tashkil etdi. Keyingi tajribalarda nifedipinning ushu konsentratsiyasi mavjud sharoitda DGK (60 mkM), F-18 (45 mkM) va DKV-11 (35 mkM) ning musbat inotrop ta'siri nazoratga nisbatan mos ravishda 61,7±4,5%, 66,9±3,7% va 50,6±3,8% ga kamayganligi aniqlandi (3-rasm A,B).




3-rasm. A. DKV-11 konyugatining nifedipin ishtirokida kalamush yuragi papilyar muskul qisqarish kuchiga ta'sirining original yozuvi. B. DGK flavonoidi, F-18 alkaloidi va DKV-11 konyugatining muhitda nifedipin ishtirokida kalamush papilyar muskul qisqarish kuchiga ta'siri. Ordinata o'qida – qisqarish kuchi foiz (%) hisobida ifodalangan. Barcha holatlarda * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$.; $n=5$.

Nifedipin ishtirokida o'tkazilgan tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, DGK, F-18 va DKV-11 konyugatining musbat inotrop ta'siri nazorat bilan solishtirilganda kamayishi kuzatildi, bu esa kardiomiotsitlarning o'rganilayotgan BFM larning musbat inotrop ta'sirida Ca²⁺_L-kanallarining ishtiroki mavjud bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Na⁺/Ca²⁺ almashinuv kardiomiotsitlarda Ca²⁺ gomeostazini saqlashda muhim rol o'ynaydi, buning natijasida diastol paytida Ca²⁺ ionlarining ≈30% miotsitlardan chiqariladi. Biroq, Na⁺/K⁺-ATFazani blokirovka qilish sharoitida Na⁺/Ca²⁺ almashinuv teskari rejimda ishlashi va [Ca²⁺]_i ning hujayra ichidagi

konsentratsiyasini oshirishi mumkin, bu esa musbat inotropizm rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olib, keyingi tajribalarda $\text{Na}^+/\text{Ca}^{2+}$ almashinuvning nospesifik blokatori NiCl_2 ishtirokida o'rganilayotgan birikmalarning musbat inotrop ta'siri o'rganildi. Bunda 10 mM NiCl_2 mavjud sharoitda DGK (60 mkM), F-18 (45 mkM) va DKV-11 (35 mkM) ning musbat inotrop ta'siri nazoratga nisbatan mos ravishda $23,3 \pm 2,9\%$, $51,2 \pm 4,7\%$ va $27,6 \pm 3,5\%$ ga kamayishi aniqlandi. 10 mM NiCl_2 mavjud sharoitda bundan tashqari, F-18 alkaloidining musbat inotrop ta'siri sezilarli darajada kamayishi kuzatildi (4-rasm).




4-rasm. NiCl_2 mavjud sharoitda DGK, F-18 va DKV-11ning papillyar muskul qisqarish kuchiga ta'siri. Ordinata o'qi bo'yicha – muskulning qisqarish kuchi foizda berilgan. Barcha holatlarda (** $p < 0,05$; $n=5$). Preparatni qo'zg'atish chastotasi 1 Gs.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, musbat inotrop ta'sirni ta'minlashda $\text{Na}^+/\text{Ca}^{2+}$ almashinuvning ishtiroki DGK va DKV-11 ga nisbatan F-18 alkaloidida ko'proq namoyon bo'ldi.

Na^+/K^+ -ATFaza turli yurak patologiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kardiomiotsitlarning funksional faolligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi (Dongdong Chen, 2014 yil). Xususan, yurak yetishmovchiligida Na^+/K^+ -ATFazaning funksional faolligi 40% gacha kamayishi aniqlangan, bu esa kardiomiotsitlar membranasidagi K^+ va Na^+ ionlari gradiyentlarining buzilishiga va yurak muskul qisqarish faolligining pasayishiga olib keladi (Keld Kjeldsen, 2003 yil). Na^+/K^+ -ATFaza funksiyasini korreksiya qilish uchun Na^+/K^+ -ATFaza ingibitorlari bo'lgan ouabain va digoksin kabi yurak glikozidlari keng qo'llaniladi. Ushbu ingibitorlar hujayradan tashqarida ortiqcha K^+ ionlarining va hujayra ichida ortiqcha Na^+ ionlarining to'planishiga olib keladi. Hujayra ichida Na^+ ionlarining to'planishi konsentratsiya gradiyentiga ta'sir qiladi, bu odatda $\text{Na}^+/\text{Ca}^{2+}$ almashinuvning teskari reversion rejimida faollashishi natijasida hujayradan Na^+ ionlarini chiqaradi va Ca^{2+} ionlari esa hujayra ichiga kirishi hisobiga yurakning qisqarish faolligining ortishiga olib keladi (Gordon M., 2001 yil).

Kalamush yuragi papillyar muskullarida o'tkazgan nazorat tajribalarimizda ouabain musbat inotrop ta'sir ko'rsatdi va 20 mkM konsentratsiyada qisqarish kuchini nazoratga nisbatan $54,3\pm 3,2\%$ ga oshirishi kuzatildi (5-rasm, A).




5-rasm. A. Ouabainning kalamush papillyar muskul qisqarish faolligiga dozaga bog'liq ta'siri. Ordinata o'qida – maksimalga nisbatan foiz (%) hisobida ifodalangan muskul qisqarish kuchi, absissa o'qida - ouabainning konsentratsiyasi (mkM) ko'rsatilgan (*- $p < 0,05$; **- $p < 0,01$). Stimulyatsiya chastotasi 1 Gs ($t = +36 \pm 0,5^\circ\text{C}$); $n = 4$. **B. DGK, F-18 va DKV-11 ning ouabain ishtirokida kalamush papillyar muskul qisqarish kuchiga ta'siri.** Ordinata o'qida – muskulning qisqarish kuchi foizda berilgan. Barcha holatlarda *- $p < 0,05$; **- $p < 0,01$; $n = 5$. Preparatni qo'zg'atish chastotasi 1 Gs.

O'rganilayotgan birikmalarning musbat inotrop ta'sirida Na^+/K^+ -ATFazaning rolini baholash uchun ularning ta'siri ouabain ishtirokida o'rganildi. Ushbu tajribalarda papillyar muskulni ouabain (20 mkM) bilan oldindan inkubatsiya qilinishi muskul qisqarish kuchini $54,7\%$ ga oshirishi kuzatildi (5-rasm, A.). Ouabain (20 mkM) fonida DGK (60 mkM), F-18 (45 mkM) va DKV-11 (35 mkM) qo'shilishi bilan mos ravishda $21,7 \pm 2,7\%$, $27,2 \pm 3,3\%$ va $43,8 \pm 4,6\%$ ga muskul qisqarish kuchini oshirishi qayd qilindi. (5-rasm, B).

Ouabainning Na^+/K^+ -ATFazani ingibirlashi orqali $\text{Na}^+/\text{Ca}^{2+}$ almashinuvni teskari ish rejimiga olib kelishi natijasida Ca^{2+} ionlari kirishining ortishi hisobiga musbat inotrop ta'siri yuzaga kelishini hisobga olib, DGK, F-18 va DKV-11 Na^+/K^+ -ATFazani ingibirlashi orqali musbat inotrop ta'siri ta'minlanishini taxmin qilish mumkin.

Kardiomiotsitlarda Ca^{2+} gomeostazini saqlashda K_{ATF} kanallari muhim rol o'ynaydi, ular membrana potensialini nazorat qilish orqali sarkolemmaning potensialga bog'liq Ca^{2+} kanallari va SR Ca^{2+} transport tizimlari faoliyatining regulatsiyasida ishtirok etadi (Schlichter L. et.al., 1993 yil). Ushbu kanallar miyokardning metabolik jarayonlari va energiya sarfini optimallashtirishda, ATF parchalanish tezligini va yurakning qisqarish chastotasini kamaytiradigan mexanizmlarni faollashtirishda yetakchi rol o'ynashi hamda yurakning ishemik kasalliklaridan himoya qilishi aniqlangan (Garvan C. Kane, et.al., 2005 yil). Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, biz o'rganilayotgan birikmalarning sarkolemma K_{ATF} -kanallariga ta'sirini ularning aktivatori nikorandil ishtirokida tekshirdik. Nikorandilning K_{ATF} -kanallarini faollashtirishi kardiomiotsitlarning

membrana potensialining pasayishiga, bu esa potensialga bog‘liq bo‘lgan Ca^{2+} kanallari orqali Ca^{2+} ionlari oqimining kamayishiga [Takeshi Iwai, at all., 2002 yil] va miokard qisqarish kuchining 43,7% ga pasayishiga olib keladi (6-ram, A).



6-rasm, A. Nikorandilning kalamush yuragi papilyar muskul qisqarish faolligiga dozaga bog‘liq ta’siri (original yozuv). **B.** Nikorandil mavjud sharoitda DGK, F-18 va DKV-11 ning papilyar muskul qisqarish kuchiga ta’siri. Ordinata o‘qi bo‘yicha – muskulning qisqarish kuchi foizda berilgan. Barcha holatlarda $*-p<0,05$; $**p<0,01$; $n=5$. Preparatni qo‘zg‘atish chastotasi 1 Gs.

Ushbu tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, nikorandil (100 mkM) ishtirokida DGK (60 mkM), F-18 (45 mkM) va DKV-11 (35 mkM) qo‘shilishi kalamush papilyar muskul qisqarish kuchini nazoratga nisbatan mos ravishda $69,3\pm 3,3\%$, $60,5\pm 4,8\%$ va $84,5\pm 3,1\%$ oshishi kuzatildi (6-rasm, B). Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, K_{ATP} -kanallari DGK flavonoidi, F-18 alkaloidi va DKV-11 konyugatining musbat inotrop ta’sirini ta’minlashda ishtirok etishi mumkin.

Ko‘plab farmakologik vositalarning musbat inotrop effekti kardiomiotsitlarda β_2 -adreneroretseptorlar (β_2 -AR) va adenilatsiklaza (AS) faollashishi orqali ta’minlanadi. Ushbu tizimning faollashishi siklik adenzin monofosfat (sAMF) konsentratsiyasining ortishi natijasida L tipidagi Ca^{2+} kanallarini va SR Ca^{2+} transport tizimlarini faollashtirishi orqali yuzaga keladi va bu esa kardiomiotsitlarda Ca^{2+} ionlari konsentratsiyasining oshishini ta’minlaydi (Dirk von Lewinski, et.al., 2005 йил). Buni hisobga olgan holda, biz o‘rganilayotgan birikmalarning musbat inotrop ta’sirida β_2 -AR ning rolini o‘rgandik. Ushbu tajribalar β_2 -AR ning spetsifik blokatori propranolol ishtirokida olib borildi (Hobeom Lee, et.al., 2010 йил). Ushbu tajribalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, propranolol (10 mkM) mavjudligida DGK (60 mkM), F-18 (45 mkM) va DKV-11 (35 mkM) qo‘shilganda papilyar muskul qisqarish kuchi mos ravishda $68,4\pm 3,3\%$, $74,6\pm 4,7\%$ va $87,8\pm 3,5\%$ ni tashkil etdi (1-jadval).

β_2 -AR blokadasida DGK, F-18 va DKV-11 ning musbat inotrop ta’sirining sezilarli darajada pasayishi bu β_2 -AR-AS-sAMF signalizatsiya tizimining faollashishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi, bu esa L-tipli Ca^{2+} kanallari orqali kardiomiotsitga Ca^{2+} ionlari kirishining ortishini ta’minlaydi. Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan birikmalarning musbat inotrop

ta'siri kardiomiotsitlarda $[Ca^{2+}]_i$ konsentratsiyasining ortishi bilan birga β_2 -AR-AS-sAMF signalizatsiya tizimining faollashuviga asoslangan bo'lishi mumkin.


1-jadval

β -adrenoretseptor blokadasining DGK, F-18 va DKV-11 preparatlarining musbat inotrop effekti ta'siri

Tajriba sharoiti	Qisqarish amplitudasi (%)			
	Nazorat	DGK (60 mkM)	F-18 (45 mkM)	DKV-11 (35 mkM)
Propranolol (10 mkM)	62,5±3,2%	** 68,4±3,3% (n=5)	* 74,6±4,7% (n=5)	** 87,8±3,5% (n=6)

Izoh: papillyar qisqarish kuchi nazoratga nisbatan foiz (%) hisobida ifodalangan, nazorat 100% sifatida qabul qilingan. Qo'zg'atish chastotasi 1 Gs (*- $p < 0,05$; **- $p < 0,01$; $n = 5-6$).

Ca^{2+} gomeostazini va yurak muskul hujayralarining qisqarishi va bo'shashish jarayonlarini saqlashda SR Ca^{2+} transport tizimlari muhim rol o'ynaydi. RyR - SR membranalarida Ca^{2+} kanali bo'lib, u Ca^{2+}_L -kanallari orqali kiruvchi Ca^{2+} ionlari tomonidan faollashganda, yurak muskul qisqarish jarayonini boshlash uchun zarur bo'lgan Ca^{2+} ionlarining SR dan sitozolga chiqishini ta'minlaydi. Yurak muskulining bo'shashish jarayoni SERCA2a va plazmolemma Na^+/Ca^{2+} almashinuv tomonidan ta'minlanadi, ular Ca^{2+} ionlarini SR ga kiritib, ularni kardiomiotsitdan chiqarib sitozoldagi Ca^{2+} ionlarining konsentratsiyasini kamaytirish orqali bo'shashishni ta'minlaydi. Yurak muskul qisqarish faolligining regulatsiyasida SR RyR va Ca^{2+} -ATFazaning muhim rolini hisobga olib, biz DGK, F-18 va DKV-11 ning musbat inotrop ta'sirida ularning rolini o'rgandik.




